



Fuqarolar Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining kafolatlanishi

Andijon davlat universiteti

MG'MAHT yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Mirzarayimova Zebiniso Mansurbek qizi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining erkinliklari, huquq va majburiyatlarining qonuniy asoslari aks etgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, fuqarolar, huquq, erkinlik, burch, majburiyat.

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyati tarkibida insoniyat ma'rifiy taraqqiyotining uchinchi ming yilligiga qadam qo'ydi. Yorug' istiqbolga intilayotgan xalqimizning xohish-istagi – adolatli fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat barpo etish. Mazkur maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan iqtisodiy va siyosiy-huquqiy islohotlar o'zining sezilarli samarasini bermoqda. Mustaqillik yillari mobaynida bo'lajak yangi davlatchilik va demokratik ijtimoiy-siyosiy tuzumning mustahkam huquqiy zamini bo'lgan bir qator qonunlar, xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yaratildi. Bugungi kunda Asosiy qonunimiz istiqbolning buyuk ne'mati, yorqin timsoli sifatida jamiyatimizning har bir a'zosi dilidan teran joy oldi; har bir fuqaro e'zozlovchi mo'tabar ijtimoiy -huquqiy qadriyatga aylandi.

Konstitutsiyada e'tirof etilganidek, O'zbekiston Respublikasi suveren demokratik davlatdir. U o'z mohiyatiga ko'ra, xalq manfaatlarini ifodalaydi, fuqarolar va inson haq-huquqlarini qonun asosida kafolatlaydi. Demokratiya va ijtimoiy adolat prinsiplari siyosiy hokimiyat faoliyatining asoslarini tashkil etadi.

Konstitutsiya jamiyat huquqiy tizimining o'zagi, shuningdek, davlatning Asosiy qonuni sifatida barcha qonunchilik sohalarining bosh manbai hisoblanadi, chunki konstitutsiyada xalqning oliy irodasi o'zining qonuniy ifodasi va muxtasar bayonini topadi.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi mamlakat huquq tizimining yetakchi sohasidir. U hokimiyat bilan shaxsning o'zaro munosabatlarini, davlat idoralari tizimining faoliyat yuritishini tartibga soluvchi, fuqarolarning huquqiy maqomini, shuningdek, jamiyatning boshqa ijtimoiy tuzilmalari holatini belgilovchi huquqiy normalar yig'indisidir.⁴⁵

Mustaqil davlatning asosiy vazifalaridan biri o'z fuqarolarining demokratik huquq va erkinliklarini ta'minlash va uni qo'riqlashdir. Bu vazifa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zining huquqiy ifodasini topgan. Uning X bobi "Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari"ga bag'ishlangan bo'lib, 43-moddasida: "Davlat fuqarolarining

⁴⁵ U.Tadjixanov.,X.Odilqoriyev.,A.Saidov.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.T.:2001.3-b.



Konstitutiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi"⁴⁶, deyiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklariga bag'ishlangan moddalar birmuncha kengaytirilgan.

Mamlakatimiz fuqarolarining demokratik huquq va erkinliklariga oid prinsiplar Konstitutsiyada o'z aksini topgan. Ular orasida yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi ekanligi (24-modda), har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egaligi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsizlik yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi (25-modda), O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga egaligi (28-modda), har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga egaligi (29-modda), O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatlarini yaratib berishi (30-modda), jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita va o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egaligi, bunday ishtirok etish o'zini-o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshirilishi (32-modda), O'zbekiston Respublikasining fuqarolari o'z ijtimoiy faolliklarini Respublika qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egaligi (33-modda), kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egaligi (34-modda) alohida qayd etilgan.⁴⁷

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, fuqarolarning shaxsiy hayoti qonun bilan qo'riqlanadi.

O'zbekiston Respublikasida insoniyat asrlar davomida orzu qilib kelgan demokratik huquq, erkinlik va burchlar amalga oshmoqda. Birinchi Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Bu – mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu – insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir".⁴⁸

Inson va fuqarolarning huquqiy maqomi faqat huquqlar va erkinliklardangina iborat emas. Unga burch va majburiyatlar ham kiradi. Fuqarolar o'zlarining Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burch va majburiyatlarini ado etadilar.

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent – "O'zbekiston" – 2019. 16-b.

⁴⁷ U. Tadjixanov., X. Odilqoriyev., A. Saidov. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T.: 2001. 374-375-b.

⁴⁸ Karimov, I. A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. T.: O'zbekiston, 1992. 15-16-b



Fuqarolari o'z huquq va majburiyatlarini bilgan huquqiy savodxon davlatning kelajagi buyuk bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U. Tadjixanov., X. Odilqoriyev., A. Saidov. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T.: 2001.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent- "O'zbekiston"-2019
3. Karimov. I. A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: O'zbekiston, 1992.

